1-jadval. Motivatsion-qadriyatli mexanizmning tarkibiy komponentlari, mezonlari va ko‘rsatkichlari

Tarkibiy komponent	Mezon (kriteriya)	Ko‘rsatkichlar va diagnostika usuli
Motivatsion-ehtiyojli	Jismoniy takomillashuvga barqaror ichki motivning mavjudligi	Yutuqqa erishish motivatsiyasi; mashg‘ulotlarga ixtiyoriy jalb etilish; muvaffaqiyat sari intilish (motivatsiya so‘rovnomasi)
Qadriyatli-mazmuniy	Jismoniy madaniyatning shaxsiy qadriyat sifatida anglanishi	Sog‘lom turmush tarzining qadriyatli mazmuni; jismoniy mukammallikning shaxsiy ma’nosi (qadriyatli yo‘nalganlik metodikasi)
Refleksiv-baholovchi	O‘z jismoniy holatini adekvat baholash va o‘z-o‘zini boshqarish	O‘z-o‘zini nazorat qilish; refleksiv o‘z-o‘zini baholash; individual dasturni tuzata olish (refleksiya va o‘z-o‘zini baholash testlari)

Akmeologik yondashuvning uch mexanizmini yaxlit tizim sifatida tasavvur qilish maqsadida ularning o‘zaro bog‘liqligi 1-rasmda strukturaviy model ko‘rinishida keltirilgan. Modelda motivatsion-ehtiyojli, qadriyatli-mazmuniy va refleksiv-baholovchi mexanizmlar birgalikda talabaning jismoniy o‘z-o‘zini takomillashtirishga qaratilgan «akme» darajasini ta’minlaydi.




1-rasm. Akmeologik motivatsion-qadriyatli mexanizmlarning strukturaviy modeli

Natijalar va muhokama. Konstatatsiya bosqichida har ikkala guruhda ko‘rsatkichlar deyarli bir xil bo‘lib, past va o‘rta darajalar ustunlik qildi. Shakllantiruvchi tajriba davomida tajriba guruhida mashg‘ulotlar akmeologik yondashuv asosida – individual maqsad qo‘yish, muvaffaqiyat vaziyatlarini yaratish, refleksiv kundalik yuritish va o‘z-o‘zini baholash orqali tashkil etildi. Yakuniy bosqich natijalari 2-jadvalda va 2-rasmda aks ettirilgan.


2-jadval. Motivatsion-qadriyatli mexanizm shakllanganlik darajalarining taqsimoti (tajriba boshi va oxirida)

Shakllanganlik darajasi	TG Boshlang‘ich, %	TG yakuniy, %	NG boshlang‘ich, %	NG yakuniy, %
Past	45,2	14,5	43,1	37,9
O‘rta	41,9	46,8	43,1	44,8
Yuqori (akmeologik)	12,9	38,7	13,8	17,2



2-rasm. Tajriba guruhida shakllanganlik darajalari dinamikasi

Jadval va rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida yuqori (akmeologik) darajaga erishgan talabalar ulushi 12,9 % dan 38,7 % ga oshdi, past darajadagilar esa 45,2 % dan 14,5 % ga kamaydi. Nazorat guruhida esa o‘zgarishlar ancha kam bo‘lib, yuqori daraja atigi 13,8 % dan 17,2 % ga o‘zgardi. Ikki guruhning yakuniy natijalari o‘rtasidagi farq 3-rasmda yaqqol ko‘rinadi.




3-rasm. Yakuniy bosqichda tajriba va nazorat guruhlari natijalari

Tarkibiy komponentlar bo‘yicha shakllanganlik koeffitsientining dinamikasi 3-jadvalda va 4-rasmda keltirilgan. Tajriba guruhida barcha uch komponent bo‘yicha koeffitsient o‘rtacha 0,29 birlikka o‘sgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich atigi 0,06–0,07 birlikni tashkil etdi.

3-jadval. Tarkibiy komponentlar bo‘yicha shakllanganlik koeffitsientining dinamikasi

Tarkibiy komponent	TG boshl.	TG yakuniy	O‘sish	NG boshl.	NG yakuniy	O‘sish
Motivatsion-ehtiyojli	0,42	0,71	+0,29	0,43	0,49	+0,06
Qadriyatli-mazmuniy	0,39	0,68	+0,29	0,40	0,47	+0,07
Refleksiv-baholovchi	0,37	0,66	+0,29	0,38	0,45	+0,07
Umumiy o‘rtacha	0,39	0,68	+0,29	0,40	0,47	+0,07



4-rasm. Tarkibiy komponentlar bo‘yicha shakllanganlik koeffitsienti dinamikasi (tajriba guruhi)

Olingan natijalarning statistik ishonchliligi Pirsonning χ^2 mezoni yordamida tekshirildi. Yakuniy bosqichda tajriba va nazorat guruhlarining darajalar bo‘yicha taqsimotini taqqoslashda empirik qiymat $\chi^2emp = 14,7$ ni tashkil etdi, bu esa erkinlik darajasi $df = 2$ va ahamiyatlilik darajasi $p < 0,05$ dagi kritik qiymat $\chi^2krit = 5,99$ dan katta. Demak, guruhlar orasidagi farq tasodifiy emas, balki qo‘llanilgan akmeologik yondashuv ta’siri natijasidir.

Muhokama shuni ko‘rsatadiki, akmeologik yondashuvning samaradorligi uning uch mexanizmni yaxlit ta’sir ettirishida namoyon bo‘ladi: motivatsion-ehtiyojli mexanizm faoliyatga turtki beradi, qadriyatli-mazmuniy mexanizm unga shaxsiy ma’no baxsh etadi, refleksiv-baholovchi mexanizm esa o‘z-o‘zini boshqarish va uzluksiz takomillashuvni ta’minlaydi. Aynan shu uch mexanizmning o‘zaro uyg‘unligi talabada jismoniy o‘z-o‘zini takomillashtirishga barqaror va ichki asosga ega intilishni shakllantiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, talabalarning jismoniy o‘z-o‘zini takomillashtirishida akmeologik yondashuvning motivatsion-qadriyatli mexanizmi uch o‘zaro bog‘liq komponent – motivatsion-ehtiyojli, qadriyatli-mazmuniy va refleksiv-baholovchi komponentlar birligidan iborat. Ikkinchidan, ushbu mexanizmlarni maqsadli faollashtirish talabalarda yuqori (akmeologik) darajaga erishishni sezilarli darajada ta’minlaydi. Uchinchidan, tajriba-sinov natijalari va statistik tahlil ($\chi^2emp = 14,7 > \chi^2krit = 5,99$) akmeologik yondashuvning yuqori pedagogik samaradorligini tasdiqlaydi.

Shu tariqa, akmeologik yondashuv asosida talabalarning motivatsion-qadriyatli sohasini rivojlantirish ularning jismoniy o‘z-o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan barqaror ichki intilishini shakllantirishning istiqbolli pedagogik vositasi hisoblanadi. Tadqiqotning kelgusi yo‘nalishi mazkur mexanizmlarni turli yo‘nalishdagi talabalar kontingentiga moslashtirilgan uslubiy ta’minot ishlab chiqish bilan bog‘liq.

Adabiyotlar

1. Ананьев В.Г. Человек как предмет познания. – Санк-Петербург: «Питер», 2001.
2. Кузьмина Н.В. Предмет акмеологии. – Санк-Петербург: «Политехника», 2002.
3. Бодалёв А.А. Вершина в развитии взрослого человека: характеристики и условия достижения. – Москва: «Флинта», «Наука», 1998.
4. Деркач А.А., Зазикин В.Г. Акмеология: учебное пособие. – Санк-Петербург: «Питер», 2003.
5. Ильин Е.П. Психология физического воспитания. – Санк-Петербург: «Питер», 2002.
6. Виленский М.Я. Физическая культура и здоровый образ жизни студента. – Москва: «КноРус», 2013.
7. Бальсевич В.К. Физическая культура для всех и для каждого. – Москва: «Физкультура и спорт», 1988.
8. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum Press, 1985.
9. Ryan R.M., Deci E.L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. // American Psychologist. 2000. Vol. 55, №1. – P. 68-78.
10. Kerimov F.A. Sport metrologiyasi. – Toshkent: O‘zDJTU, 2018. .
11. Salomov R.S. Sport mashg‘ulotining nazariy asoslari. – Toshkent: O‘zDJTI, 2005.
12. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2010.
13. Ntoumanis N., Ng J.Y.Y., Prestwich A. et al. A meta-analysis of self-determination theory-informed intervention studies in the health domain: effects on motivation, health behavior, physical, and psychological health. // Health Psychology Review. 2021. Vol. 15, № 2. – P. 214-244.

СЎФИ ОЛЛОЁРНИНГ АХЛОҚ ВА ТАРБИЯГА ЭЪТИБОРИ: ТАРИХИЙ МАНБАЛАР, ДИДАКТИК КОНЦЕПЦИЯ ВА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК МЕТОДЛАР БИЛАН ҚИЁСИЙ-МЕТОДОЛОГИК ТАҲЛИЛ

Носиров Жамшид Мамаджонович – *мустақил изланувчи*
birinchi777@gmail.com
Самарқанд давлат педагогика институти

ВНИМАНИЕ СУФИ АЛЛАЯРА К НРАВСТВЕННОСТИ И ВОСПИТАНИЮ: СРАВНИТЕЛЬНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ С ИСТОРИЧЕСКИМИ ИСТОЧНИКАМИ, ДИДАКТИЧЕСКОЙ КОНЦЕПЦИЕЙ И СОВРЕМЕННЫМИ ПЕДАГОГИЧЕСКИМИ МЕТОДАМИ

Носиров Жамшид Мамаджонович – *самостоятелный соискатель*
Самаркандский государственный педагогический институт

SUFI OLLOYAR'S ATTENTION TO ETHICS AND UPBRINGING: COMPARATIVE-ETHODOLOGICAL ANALYSIS WITH HISTORICAL SOURCES, DIDACTIC CONCEPT, AND MODERN PEDAGOGICAL METHODS

Nosirov Jamshid Mamadjonovich – *independent researcher*
Samarkand State Pedagogical Institute

Таянч сўзлар: Сўфи Оллоёр, Каттақўрғон адабий муҳити, Миёнқол, Маслак ул-муттақин, Сабот ул-ожизин, маърифат дарғалари, Имом Ғаззолий, Нақшбандия, ахлоқий тарбия, комил инсон, илм ва амал бирлиги, прагматик таълим, компетенциявий ёндашув, эмоционал интеллект, ижтимоий-эмоционал таълим, фасилитаторлик.

Резюме. Мақолада XVII асрнинг иккинчи ярми ва XVIII аср бошларида Марказий Осиё маънавий ва адабий-педагогик муҳитида марказий ўрин тутган мутасаввиф, мударрис ва мутафаккир шоир Сўфи Оллоёрнинг ахлоқий-тарбиявий қарашлари va «Маслак ул-муттақин» ва «Сабот ул-ожизин» асарларидаги дидактик тамойиллар ва комил инсон концепцияси, асарнинг манбашунослик ва дидактик салоҳиятидан бугунги таълим модернизациясида фойдаланиш бўйича назарий ва амалий тавсиялар ишлаб чиқилган.

Ключевые слова: Суфи Аллаяр, Каттакурганская литературная среда, Миянкаль, «Маслак аль-муттакин», «Сабат аль-аджизин», корифеи просвещения, имам аль-Газали, Накшбандия, нравственное воспитание, совершенный человек, единство знания и действия, прагматическое образование, компетентностный подход, эмоциональный интеллект, социально-эмоциональное обучение, фасилитация.

Резюме. В статье рассматриваются нравственно-воспитательные взгляды Суфи Аллаяра, суфия, мударриса и поэта-мыслителя, занимавшего центральное место в духовной и литературно-педагогической среде Центральной Азии во второй половине XVII и начале XVIII века, а также дидактические принципы и концепция совершенного человека в его произведениях «Маслак аль-муттакин» и «Сабат аль-аджизин»; разработаны теоретические и практические рекомендации по использованию источниковедческого и дидактического потенциала этих произведений в условиях современной модернизации образования.

Key words: Sufi Allayar, Kattaqurghan literary environment, Miankal, Maslak al-Muttaqin, Sabat al-Ajizin, enlightenment figures, Imam Ghazali, Naqshbandiyya, moral education, perfect human, unity of knowledge and action, pragmatic education, competency-based approach, emotional intelligence, social-emotional learning, facilitation.

Summary. This monographic research article systematically and comprehensively analyzes the moral and educational views of Sufi Allayar, a prominent Sufi scholar, lecturer, and thinker who played a central role in the spiritual and literary-pedagogical environment of Central Asia in the second half of the 17th and early 18th centuries. The paper explores the factors shaping the Kattaqurghan (Miankal) literary-educational environment, the role of moral education under the socio-political conditions of the period, and the conceptual influence of major enlightenment figures – Imam Abu Hamid al-Ghazali, Khaja Ahmad Yassawi, Mir Alisher Navai, and Naqshbandi Sufi doctrines – on the scholar's worldview.

Кириш. Бугунги кунда жаҳон ахборот ва таълим маконида содир бўлаётган шиддатли геополитик ва технологик трансформацион жараёнлар, глобаллашувнинг ахлоқий аспектлари ҳамда «оммавий маданият» таҳдидлари кучайган шароитда ёш авлодни нафақат юқори интеллектуал ва рақамли кўникмаларга эга бўлган мутахассис, балки мустаҳкам маънавий-ахлоқий пойдеворга эга шахс сифатида тарбиялаш глобал педагогиканинг энг долзарб стратегик вазифасига айланди. Таълим тизимини модернизация қилиш жараёнида фақат хорижий андозалар ва назарияларни автоматик кўчириш эмас, балки асрлар давомида Марказий Осиё цивилизациясида синалган, миллий ва шарқона дидактик меросни замонавий педагогик технологиялар билан уйғунлаштирган ҳолда синтез қилиш методологик жиҳатдан муҳим аҳамият касб этади.

Марказий Осиё маърифий педагогикаси тарихида XVII асрнинг иккинчи ярми ва XVIII аср бошларида яшаб ижод этган мутасаввиф шоир, мударрис ва мутафаккир Сўфи Оллоёр мероси алоҳида ажралиб туради. Унинг «Маслак ул-муттақин» ва «Сабот ул-ожизин» сингари дидактик асарлари асрлар давомида минтақа мадрасалари ва мактабларида одоб, ахлоқ, ижтимоий муносабатлар, ислом фиқҳи ҳамда эътиқодини ўргатувчи асосий дарслик вазифасини ўтаган. Ушбу манбалар таркибидаги тарбиявий ва психологик механизмларни XXI аср педагогика ва психологияси эришган назарий концепциялар (эмоционал интеллект, компетенциявий ёндашув, прагматик таълим, ижтимоий-эмоционал таълим) контекстида қайта англаш ва қайта талқин қилиш академик ва амалий манфаатдорлик нуқтаи назаридан ғоят долзарбдир.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Сўфи Оллоёрнинг ҳаёти ва адабий-маърифий мероси шарқшунослик, адабиётшунослик ва манбашунослик соҳаларида муайян даражада ўрганилган. Хусусан,

академик Б.Валихўжаев Миёнқол ва Каттақўрғон адабий муҳити шаклланишида алломанинг ўрнини тадқиқ этган бўлса, адабиётшунос олимлар И.Ҳаққулов, Ҳ.Ҳомидий, Э.Каримов, Н.Комилов, С.Рафиддиновлар шоирнинг тасаввуфий-ахлоқий қарашлари ва бадиий маҳоратини манбашунослик жиҳатдан таҳлил қилганлар.

Бироқ, шу вақтга қадар Сўфи Оллоёр асарларидаги дидактик ва педагогик концепциянинг замонавий жаҳон таълим назариялари (эмоционал интеллект, компетенциявий ёндашув, прагматик ва ижтимоий-эмоционал таълим) билан қиёсий-методологик таҳлили мустақил комплекс тадқиқот объекти сифатида атрофлича ўрганилмаган. Мавжуд тадқиқотларда асар асосан филологик ва манбашунослик нуқтаи назаридан ёритилган бўлиб, унинг тажрибавий педагогик механизмлари ва ҳозирги таълим тизими учун дидактик имкониятлари очиб берилмаган.

Тадқиқот методологияси. Ушбу тадқиқотнинг асосий мақсади – Сўфи Оллоёрнинг Каттақўрғон адабий муҳитидаги ўрни, маънавий устозлари таъсири ҳамда «Маслак ул-муттақин» ва «Сабот ул-ожизин» асарларида илгари сурилган ахлоқий-тарбиявий тизимни аниқлаш ва уларни XXI асрнинг инновацион педагогик методлари билан қиёсий таҳлил қилиш орқали манбанинг замонавий таълимдаги методологик ва амалий қимматини асослаб беришдан иборат.

Ушбу мақсадни амалга ошириш учун қуйидаги вазифалар белгиланди:

1. XVII–XVIII асрларда Каттақўрғон (Миёнқол) адабий-маърифий муҳитининг омиллари ва ахлоқий тарбия масалаларини тарихий-методологик жиҳатдан таҳлил қилиш;

2. Сўфи Оллоёр дунёқарашига таъсир этган маърифат дарғалари ва назарий манбаларни (Имом Ғаззолий, Хожа Аҳмад Яссавий, Мир Алишер Навоий, Нақшбандийлик) аниқлаш ва уларнинг ворисийлик алоқаларини ёритиш;

3. «Маслак ул-муттақин» ва «Сабот ул-ожизин» асарларидаги педагогик тамойиллар, тарбия методлари ва Комил инсон концепциясини тизимлаштириш;

4. Анъанавий шарқона ахлоқий тарбия усулларини Прагматик таълим (John Dewey), Эмоционал интеллект (EQ – Daniel Goleman), Шахсга йўналтирилган таълим (Student-Centered Learning), Фасилитаторлик ҳамда Ижтимоий-эмоционал таълим (SEL) каби замонавий методлар билан қиёсий-концептуал жиҳатдан таҳлил қилиш;

5. Тадқиқот натижалари асосида миллий таълим тизими («Тарбия» фани ва олий педагогик таълим) учун амалий тавсиялар ишлаб чиқиш.

Тадқиқотнинг назарий-методологик асосини тизимлилик, тарихийлик ва мантиқийлик тамойиллари, герменевтик таҳлил (матнларни мазмуний англаш ва шарҳлаш), аксеологик (қадриятшунослик) ёндашув, қиёсий-типологик ва педагогик моделлаштириш методлари ташкил этади. Тадқиқот жараёнида мутафаккирнинг шеърий байтларидаги яширин ва ошкора дидактик маънолар замонавий таълим назариялари билан диалектик уйғунликда таҳлил қилинди.

Марказий Осиё тарихида Зарафшон водийсининг марказий қисми бўлган Миёнқол воҳаси ва унда қад ростлаган Каттақўрғон шаҳри азалдан илм-фан, адабиёт, хусусан, тасаввуф ва дидактик педагогика ривожланган муҳим маданий марказлардан бири ҳисобланади [3]. XVII асрнинг иккинчи ярми ва XVIII асрда Бухоро хонлиги ижтимоий-маданий ҳаётида Каттақўрғон адабий муҳити ўзининг хос хусусиятлари, бадиий ва дидактик анъаналари билан алоҳида мақомга эга бўлди.

Каттақўрғон ва унинг атрофидаги қишлоқлар (Минглар, Пўлатчи, Чимбой ва б.) нафақат деҳқончилик ва ҳунармандчилик, балки илмий-маърифий жараёнларнинг марказига айланди. Шаҳарнинг географик жиҳатдан Самарқанд ва Бухоро ўртасидаги асосий карвон йўлида жойлашгани соҳиби илмлар, фақиҳлар, муҳаддислар ва тасаввуф машойихларининг доимий мулоқот ва фикр алмашинув майдонини яратди. Бу эса ҳудудда юксак интеллектуал ва маънавий муҳитнинг шаклланишига замин яратди [3, 4].

XVII асрнинг иккинчи ярми – XVIII аср бошлари Марказий Осиё, хусусан, Бухоро хонлиги тарихида ниҳоятда мураккаб, сиёсий ва иқтисодий зиддиятларга бой давр бўлди. Аштархонийлар сулоласи ҳукмронлигининг заифлашуви, марказий ҳокимият учун курашлар, феодал тарқоқлик, ташқи ҳужумлар ва ички исёнлар жамиятнинг барқарор ривожланишига жиддий путур етказди.

Ушбу ижтимоий-сиёсий инқироз жамиятнинг маънавий ҳаётида ҳам ўз аксини топмай қолмади:

– **Ахлоқий деградация ва лоқайдлик:** Урушлар ва қаҳатчилик натижасида инсоний муносабатларда меҳр-оқибат, ишонч ва ҳалоллик мезонларининг заифлашуви;

– **Маърифий тушкунлик:** Мадрасалар ва мактабларда таълим сифатининг пасайиши, қуруқ схоластика ва расмиятчиликнинг кучайиши;

– **Ижтимоий адолатсизлик:** Ҳукмрон қатлам орасида мансабпарастлик, таъмагирлик ва аҳоли манфаатларига лоқайдликнинг ортиши.

Бундай мураккаб ва тушкун ижтимоий шароитда жамиятни маънавий емирилишдан сақлаб қолишнинг ягона йўли сифатида *инсон ахлоқини поклаш, адолат, сабр ва меҳнатсеварликни тарғиб қилиш ҳамда ахлоқий тарбияни ижтимоий ислоҳотларнинг ўзагига айлантириш* зарурати юзага келди. Каттақўрғон адабий муҳити намояндалари айнан ана шу ижтимоий эҳтиёжни теран англаган ҳолда, ўз ижодларининг бош мақсади қилиб тарбия ва ахлоқ масалаларини белгиладилар [2, 3].

Таҳлил ва натижалар. Каттақўрғон адабий муҳитининг энг муҳим хусусиятларидан бири – унда *дидактика (таълим-тарбия) ва оммабоплик* тамойилининг етакчи ўринга чиққанидир. Самарқанд ва Бухоро мадрасаларида илмий ва арабзабон схоластика муайян даражада сақланиб қолган бир шароитда, Миёнқол ва Каттақўрғон тарбиячилари ахлоқий ва шаръий билимларни кенг халқ оммасига тушунарли бўлган содда, бадиий ва шеърий тилда етказиш усулини танладилар.

Воҳанинг мактаб ва мадрасаларида ўқув тизими уч босқичли амалий-дидактик методга таянган:

– **Ибтидоий босқич:** Алифбо ва савод чиқариш, сураларни ёдлаш билан бирга, Алишер Навоий ва Ҳофиз Шерозийнинг ахлоқий ғазалларини ўрганиш;

– **Орта ахлоқий-дидактик босқич:** Сўфи Оллоёрнинг «Сабот ул-ожизин» ва «Маслак ул-муттақин» асарларини атрофлича ўрганиш ва ёд олиш. Бу босқичда талабаларга фақат грамматика эмас, балки оила, жамият, муомала ва касб-ҳунар одоблари сингдирилган;

– **Юқори академик босқич:** Фиқҳ, араб тили грамматикаси (Мулла Жалол ва б.), калом ҳамда тасаввуф фалсафасини чуқур таҳлил қилиш [3, 4].

Сўфи Оллоёрнинг (1644–1724) маънавий, дидактик ва педагогик қарашлари тасодифий шаклланмаган. У Ислом Шарқининг асрлар давомида шаклланган бой фалсафий ва ахлоқий-педагогик анъаналарини атрофлича ўзлаштирган. Аллома дунёқарашининг назарий-методологик пойдеворини шакллантиришда XI асрнинг мутафаккири ва фақиҳи *Имом Абу Ҳомид ал-Ғаззолий* (1058–1111) таълимоти ҳал қилувчи роль ўйнаган.

Имом Ғаззолийнинг «Иҳёу улумид-дин» («Дин илмларини жонлантириш») ва «Кимиёи саодат» асарларидаги қуйидаги педагогик ва психологик концепциялар Сўфи Оллоёр асарларининг асосини ташкил этди:

– **Руҳий ва қалб терапияси:** Инсон ахлоқий деградациясининг асл илдизи унинг ички психологик хасталикларида – ҳасад, кибр, ғазаб, риё, мақтанчоқликда эканлиги;

– **Ахлоқни ўзгартириш ва тарбиялаш имконияти:** Феъл-атвор туғма ва ўзгармас эмас, балки тизимли машқлар, педагогик таъсир ва ўз-ўзини назорат қилиш орқали покланадиган жараён эканлиги;

– **Билим ва эътиқод мувозанати:** Қуруқ шаклиятчилик ва фиқҳий тартибларга кўр-кўрона амал қилиш эмас, балки уларнинг моҳиятини ва ахлоқий мазмунини англаш зарурлиги.

Сўфи Оллоёр Ғаззолийнинг мураккаб ва ҳажмдор арабзабон трактатларидаги психологик ва ахлоқий қарашларни шеърий ва содда шаклга келтириб, Марказий Осиё мадрасалари талабалари учун тушунарли дидактик тизимга айлантирди [1, 2].

Сўфи Оллоёр нафақат араб ва форс манбаларига, балки бой ва муаззам туркий дидактик адабиёт тажрибасига мурожаат этди. Унинг бадиий-педагогик услуби шаклланишида Хожа Аҳмад Яссавий ҳамда Мир Алишер Навоий ижоди алоҳида ўрин тутади.

Мутафаккир	Педагогик тамойил ва таъсир йўналиши	Сўфи Оллоёр ижодидаги акси ва ривожи
Хожа Аҳмад Яссавий	Содда, самимий ва халқчил шеърий тил орқали ахлоқий ва тасаввуфий маърифатни кенг омма ичида ёйиш.	«Сабот ул-ожизин»нинг халқ орасида ёд бўлиб кетиши, ҳикматли ва таъсирчан баён услуби.
Мир Алишер Навоий	Комил инсон концепцияси, инсонпарварлик, илм ва ахлоқ узвийлиги («Маҳбуб ул-қулуб», «Хамса»).	«Маслак ул-муттақин»даги ижтимоий табақалар ахлоқи ва устоз-шогирд одоби.

Сўфи Оллоёр Яссавийнинг ҳикматнависликдаги дидактик соддалигини Навоийнинг фалсафий ва бадиий теранлиги билан уйғунлаштириб, кенг омма ва мадраса талабалари учун оммабоп ва чуқур дидактик поэзия намунасини яратди [2].

Сўфи Оллоёрнинг дунёқараши ва ҳаёт тарзи Нақшбандия тариқатининг ахлоқий ва амалий қоидалари асосида шаклланди. *Нақшбандийликнинг «Дил ба ёру даст ба кор»* (Кўнгил Оллоҳда, қўл меҳнатда бўлсин) шиори аллома педагогикасининг марказий тамойилига айланди [4].

Нақшбандия тариқатидан Сўфи Оллоёр дидактикасига ўтган асосий ахлоқий қоидалар:

-Ҳалол меҳнат ва касб-ҳунар эгаллаш: Инсон жамиятга ва оиласига боқиманда бўлмасдан, ўз қўл меҳнати билан ризқ топиши шарт;

-Халқ ичида бўлиш (Халват дар анжуман): Зоҳидона таркидунёчиликни қоралаш, жамиятдан ажралмаган ҳолда ижтимоий фойдали меҳнат ва тарбия билан шуғулланиш;

-Ўз-ўзини доимий назорат қилиш (Ҳуш дар дам, Назар бар қадам): Ҳар бир олинган нафас ва босилган қадамни маънавий ва ахлоқий мезонлар асосида таҳлил қилиб бориш.

2.4. Сўфи Оллоёрнинг маънавий-интеллектуал камолот босқичлари:

Сўфи Оллоёр 1644 йилда Каттақўрғон яқинидаги Минглар қишлоғида туғилган. У дастлаб оила муҳитида, сўнгра Бухоро ва Самарқанд мадрасаларида йирик олимлардан фиқҳ, ҳадис, калом, араб ва форс тилларини пухта эгаллаган [2, 3].

Муаллиф ҳаёт йўлидаги муҳим маънавий ва педагогик босқичлар:

– **Давлат хизматидаги фаолияти:** Сўфи Оллоёр маълум муддат Бухоро хонлигида божхона ва маъмурий хизматларда ишлаган. Бироқ жамиятдаги адолатсизлик ва ахлоқий бузилишларни кўриб, мансаб ва бойликдан воз кечган ва ўзини бутунлай илм, тарбия ва шеъриятга бағишлаган. Бу ҳаётий тажриба унинг асарларидаги амалий ва ҳаққоний ҳаётий хулосаларни таъминлаган;

– **Тасаввуфий камолот:** У тасаввуфда Шайх Жўйбори, Шайх Олим ва Шайх Ҳабибуллоҳ каби нақшбандий машойихларидан сабоқ олиб, руҳий тарбиячи (муршид) даражасига кўтарилган;

– **Мударрис ва мураббийлик фаолияти:** Аллома умрининг охиригача Каттақўрғон ва унинг атрофидаги мактаб ва хонақоҳларда шогирдлар тарбиялаган, оммабоп ахлоқий-дидактик асарлар ёзган ва жамиятни маънавий ислоҳ қилишда бевосита иштирок этган [2, 3].

Сўфи Оллоёрнинг педагогик концепциясини англашда унинг икки асосий дидактик асари марказий ўрин тутади:

1. **«Маслак ул-муттақин» («Тақводорлар маслаги»):** Форсий тилда битилган, 11 000 дан ортиқ байтни ўз ичига олган фундаментал ахлоқий-фиқҳий ва дидактик манзумадир [1]. Асар ақида, ибодат, фиқҳ, нафс тарбияси, касб-ҳунар ва ижтимоий муомала одобларини шеърий йўл билан тушунтиради.

2. **«Сабот ул-ожизин» («Ожизлар саботи»):** Туркий (чиғатой) тилида ёзилган 1200 байтдан иборат дидактик асардир. У ўзининг равонлиги, соддалиги ва жўшқин бадиийлиги билан Марказий Осиёда кенг оммалашган ва аҳолининг саводхонлиги ҳамда ахлоқий тарбиясида асосий манба бўлиб хизмат қилган [2].

Манба номи	Ёзилган тили	Ҳажми	Асосий дидактик йўналиши
«Маслак ул-муттақин»	Форсий (тожикий)	11 000 байтдан ортиқ	Фиқҳий-ахлоқий қоидалар, муомала маданияти, ижтимоий табақалар ахлоқи
«Сабот ул-ожизин»	Туркий (чиғатой)	~1200 байт	Эътиқод асослари, нафс тарбияси, амал ва илм бирлиги, ахлоқий насиҳатлар

Сўфи Оллоёр педагогик тизимининг олий мақсади – комил инсон (Баркамол шахс)ни шакллантиришдир. Муаллиф талқинида комил инсон қуйидаги тўрт устун устига қурилади:

Муаллиф инсон ахлоқини жамиятдан ва амалий ҳаётдан ажратмаган ҳолда кўриб чиқади. Комил инсон – нафақат шахсий тоат-ибодат билан шуғулланувчи шахс, балки жамиятга фойдаси тегадиган, ўзгаларга озор бермайдиган, ҳалол меҳнат қиладиган ва юксак маънавиятга эга бўлган фуқародир [1, 2].

Сўфи Оллоёр педагогикасининг марказий фундаментал ғояси – *илм ва амалнинг ажралмас узвийлигидир*. Мутафаккир фақат назарий билим тўплаш, китобхонлик ёки қуруқ ёд олишни қаттиқ танқид қилади. Унинг фикрича, амалиётга жорий этилмаган билим инсон маънавиятига фойда келтирмайди, аксинча, уни манманлик ва такаббурликка етаклайди [1].

Муаллифнинг «Сабот ул-ожизин» ва «Маслак ул-муттақин»даги машҳур метафорасига эътибор қаратайлик:

«Амалсиз олим – мевасиз дарахтдир. Мевасиз дарахтнинг сояси бўлиши мумкин, аммо у очликни қондирмайди. Худди шунингдек, амалсиз берилган насиҳат ҳам тингловчининг қалбига етиб бормайди.» [1, 2]

Замонавий педагогикада бу ёндашув XX аср бошларида Жон Дьюи (John Dewey) томонидан илгари сурилган Прагматик таълим (*Pragmatic Education / Learning by Doing*) концепцияси билан тўлиқ ҳамоҳангдир [5]. Дьюи таълимда қуруқ назариядан воз кечиб, билимларни амалий тажриба орқали эгаллашни ва уларни реал ҳаётий муаммоларни ечишга йўналтиришни талаб этган.

Шунингдек, XXI асрда жаҳон таълим тизимининг асосий андозасига айланган Компетенциявий ёндашув (*Competency-Based Approach*) айнан Сўфи Оллоёр илгари сурган «илм ва амал бирлиги»нинг замонавий шаклидир. Компетенциявий ёндашув ўқувчида «Билим, кўникма, малака» учлигидан ташқари, эгалланган билимларни кутилмаган ва ностандарт ҳаётий вазиятларда муваффақиятли қўллай олиш қобилиятини шакллантиришни назарда тутади [7, 8].

Таққослаш мезони	Сўфи Оллоёр педагогикаси	Прагматик таълим (Dewey)	Компетенциявий ёндашув
Асосий мақсад	Билимни ахлоқий ва амалий ҳаётда қўллаш	Билимни амалий тажриба орқали ўзлаштириш	Билимни ностандарт ҳаётий вазиятларда ишлатиш
Салбий баҳоланадиган ҳолат	Амалсиз олимлик, қуруқ ёд олиш	Пассив тинглаш, контекстсиз назария	Юзаки ахборот йиғиш, амалий кўникмасизлик
Педагогик натижа	Илмига амал қилувчи пок ахлоқли шахс	Муаммони мустақил ечувчи шахс	Рақобатбардош ва эгилувчан мутахассис

Сўфи Оллоёр таъкидлайдики, ғазаб ва ҳасад инсон ақлини ва маънавиятини издан чиқарувчи ички аффектлардир. Инсон ушбу импульсларни иродавий машқлар ва ахлоқий назорат орқали жиловлашни ўрганиши шарт. Аллома таклиф этган руҳий-ахлоқий машқлар ва ўз-ўзини ҳисоб қилиб бориш усули (муҳосаба) аслида шарқона психологик тренинг тизимидир [1, 2].

Сўфи Оллоёрнинг дидактик ва ахлоқий мероси фақат ўтмиш ёдгорлиги эмас, балки ҳозирги замон таълим-тарбия жараёнини маънавий ва методологик жиҳатдан бойитувчи фаол ресурсдир. Асарнинг амалий педагогик имкониятлари қуйидаги соҳаларда яққол намоён бўлади:

1. Мактаб таълимида («Тарбия» фани дастурида): Умумтаълим мактабларининг 1–11-синф «Тарбия» фани дарсликларига Сўфи Оллоёрнинг оилавий масъулият, устозга ҳурмат, ҳалол меҳнат, тил одоби ва эмпатияга оид байтларини муаммоли топшириқлар ва кейс-стади сифатида киритиш;

2. Олий педагогик таълимда: Педагогика ва психология йўналиши талабалари учун «Шарқ дидактикаси ва замонавий педагогик технологиялар» фанлари доирасида Сўфи Оллоёр концепциясини компетенциявий ёндашув ва EQ назарияси билан қиёслаб ўқитиш кабилар.

Адабиётлар

1. Сўфи Оллоҳёр. Маслак ул-муттақин. – Тошкент: «Шарқ», 2020.
2. Ҳаққулов И. Сўфи Оллоҳёр – мутасаввиф адиб. // Сўфи Оллоҳёр. Халқаро илмий анжуман материаллари тўплами. – Теҳрон–Тошкент: «Ал-ҳудо», «Мовароуннаҳр», 2005. – Б. 31–32.
3. Валихўжаев Б. Миёнкол адабий муҳитида Сўфи Оллоҳёрнинг мавқеи. //Мулоқот журнали, 1996, №3, 41-44-б.
4. Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» нашриёти, 2016.
5. Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. – New York: Macmillan, 1916.
6. Goleman, D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 2005.
7. Эргашев А. Замонавий педагогик ёндашувларнинг трансформацияси ва қиёсий таҳлили. – Тошкент: // Педагогика ва психологияда инновациялар, 2023, № 4, 12-18-б.
8. Smith J., Jones A. A Comparative Analysis of Traditional and Modern Instructional Methods. // Journal of Education and Pedagogical Research, 2024, Vol. 12, №. 2. – P. 45-58.
9. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: «Мовароуннаҳр» – «Ўзбекистон», 2009.
10. Рафиддинов С. Сўфи Оллоёр «Сабот ул-ожизин» асарининг тасаввуфий-ахлоқий моҳияти. – Тошкент: «Фан», 2008.

INSON PSIXOLOGIYASI VA MUSIQA TA'LIMI

Romanova Sanobar Yerejepovna – *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*
rsanobar75@gmail.com
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

ПСИХОЛОГИЯ ЧЕЛОВЕКА И МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Романова Санобар Ережеповна – *кандидат педагогических наук, доцент*
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

HUMAN PSYCHOLOGY AND MUSICAL EDUCATION

Romanova Sanobar Yerejepovna – *Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor*
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so'zlar: musiqiy faoliyat, san'at, energiya tarqatish, musiqa nazariyasida musiqiy asar, asar ijrochiligi, musiqa terapiya idrok qilish, fizik tovush, akustika

Rezyume. Maqola mazmuni musiqiy va fizik tovushlarni inson psixologiyasiga dissonans va konsonans ta'sir etishi va ularning fikrlashga ta'siri, shuningdek qabul qilinadigan barcha tovushlar atrof-muhitga turlicha energiya tarqatishi, tadqiqotlar ortida olimlarning musiqiy xulosalari asosida intellekt asosiy musiqiy qobiliyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lishi, musiqachilarni umumiy populyatsiyadan olingan tanlanma bilan taqqoslash ularning intellektual ustunligini aniqlashi hamda tarbiyaviy ahamiyati haqida yo'zilgan.

Ключевые слова: музыкальная деятельность, искусство, распределение энергии, музыкальное произведение в теории музыки, исполнение произведения, восприятие музыкальной терапии, физический звук, акустика

Резюме. В статье рассматривается, как музыкальные и физические звуки оказывают диссонансное и консонансное воздействие на психологию и мышление человека, и как все воспринимаемые звуки излучают в окружающую среду различную энергию. Кроме того, на основе выводов исследователей в области музыки в статье подчеркивается, что интеллект тесно связан с базовыми музыкальными способностями, и что сравнение музыкантов с выборкой из общей популяции демонстрирует их интеллектуальное превосходство, что имеет образовательное значение.

Key words: musical activity, art, energy distribution, musical work in music theory, performance of a work, perception of music therapy, physical sound, acoustics

Summary. The article discusses how musical and physical sounds exert dissonant and consonant effects on human psychology and thinking, and how all perceived sounds radiate different energies into the environment. Furthermore, based on the conclusions of researchers in the field of music, it highlights that intelligence is closely related to basic musical abilities, and that comparing musicians with a sample from the general population demonstrates their intellectual superiority, which holds educational significance.

Kirish. Insoniylikda butun qo'rshab turgan atrofda butun musiqiy va fizik tovushlar ularni psixologiyasiga ta'sir qilgan. Ular bu tovushlarga e'tibor bermasa ham ularning eshituvchi organlari tomonidan tinglanib inson bextiyor ta'sirlanadi. Bu tovushlarning insonga ta'siri har xil bo'lib dissonans va konsonans ta'sir etadi va inson miyasi orqali fikrlashga ta'sirini tekizadi. Qabul qilinadigan barcha tovushlar atrof-muhitga energiya tarqatish bilan boshlanib minglab hilpirayotgan barglarni harakatga keltiruvchi yengil shabada, pianino klavishlari, doira qoqishlar yoki qashqa rubobining yoqimli tovushi bo'lishi mumkin.

Musiqa madaniyati nima uchun barcha davlat simfoziumlari, jiddiy majlislari oldida va bayram tantanalari bilan birga xalqqa yoki qatnashuvchilariga tinglatishadi. Sababi mamlakat o'z musiqa madaniyati orqali shu tinglovchilar ko'ngliga kirib borib ularning psixologiyasini yumshatib xalqni bir biriga mehr-muhabbatini oshiradi. Ayniqsa xalq qo'shiqlari, mumtoz musiqasi va boshqa san'at asarlari bilan ta'sir qiladi. Bu o'tmishdagi tarixiy voqealardan ham bilsak bo'ladi. Har qanday tovush ham musiqa bo'lavermaydi,bu musiqa nazariyasida mutaxassislar tomonidan o'rgatiladi. Nafaqat musiqiy tovushlar balki tabiiy tovushlarning yoqimli tovushlari insonning psixologiyasiga yaxshi ta'sir qiladi. Terapiya qiladi, ovutadi, miyasini tozalaydi, charchoqni olib miya va nerv hujayralari tiklanadi.

Fizik tovushlar bo'lsa gavjum shahar harakatlari, avtomobillarning g'irillashi, oyoq tovushlar va transport tovushlariinsonlarga dissonans ta'sir qilib bu inson psixologiyasini tez charchatadi va nomusiqiylikning yaqqol holatlari bo'lib tuyulishi mumkin [2]. Ammo qirg'oqqa urilayotgan to'lqinlarning ovozi, qushlarning sayrashi, yaproqlarning shivirlashi, suvning shirillashi insonga konsonans ta'sir qilib ularning sog'ligiga yaxshi ta'sir qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Musiqa psixologiyasi ko'plab savollar bilan asoslanib bu soha insoniylikda musiqani qanday idrok etishi, unga munosabat bildirishi va yaratishi, shuningdek, uni o'z hayotiga qanday kiritishi bilan bog'liq jarayonlar bilan bog'liq. Bu mavzular quloqning tovush balandligini qanday qabul qilishidan tortib, musiqadan ma'lum his-tuyg'ularni ifodalash yoki kayfiyatni o'zgartirish uchun foydalanishgacha o'zgarib turadi. Ushbu tadqiqot sohasi asosan kognitiv psixologiyadan foydalansa-da, u sezgi va idrok, kognitiv neyrologiya, rivojlanish psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va pedagogik psixologiya kabi amaliy sohalar kabi psixologiyaning boshqa ko'plab sohalariga ham tayanadi [3].

2000 yildan ko'proq vaqt oldin eshitilgan tovushning musiqiy imkoniyatlari tovush to'lqinlarining fizik xususiyatlari bilan shakllanishi va quloqning ajoyib qobiliyatlari bilan o'zaro ta'sirlashishi bilan cheklanishi

ma’lum bo‘ldi. Pifagor tebranayotgan obyektning og‘irligini tovush balandligi bilan bog‘ladi, uning izdoshlari esa uning intuitsiyasini kengaytirib, unga torlarning tebranishlarini kiritdilar, tovush balandligini torning uzunligi bilan, garmonikalarni esa bu uzunliklarning oddiy sonli nisbati bilan bog‘ladilar. Akustika – umuman eshitish va xususan musiqaga aloqador bo‘lgan havodagi tebranishlarning hosil bo‘lishi, tarqalishi va idrok etilishi haqidagi fandir. Ammo bu bundan ham kattaroq narsa: musiqa asboblari va inson ovozi tinglovchiga yetib boradigan jismoniy jarayonlarni qanday shakllantirishi, shuningdek, musiqa yaratiladigan va zavq beradigan ijro joylarining xususiyatlari ham akustika fanining bir qismidir [1].

Musiqa psixologiyasi nafaqat psixologlar va musiqachilarni, balki boshqa fanlarning keng doiradagi olimlari va tadqiqotchilarini ham jalb qiladi. Ushbu jild, shuningdek, akustika, nevrologiya, musiqashunoslik, ta’lim, falsafa va etnomusiqashunoslik kabi sohalardan olingan istiqbollarga asoslanadi. Neyrologiya sohasiga kelsak, so‘nggi paytlarda inson musiqiyligining neyron asoslariga qiziqish kuchayib bormoqda va ushbu jildda neyron faoliyati musiqa va musiqa yaratish tajribamizni qanday cheklashi yoki yaxshilashi mumkinligi ko‘rib chiqiladi. Musiqani idrok qilishimiz uchun miya tovush signallaridan fizik namunalarni qabul qilishi va import qilishi kerak.

Musiqa ijrochiligi yuqori darajada rivojlangan ko‘nikmalar to‘plamini rivojlantirishni va musiqani nozik talqin qilish imkonini beruvchi o‘sib borayotgan bilimlar bazasini talab etadi. Musiqiy ta’limning innovatsion usullari barcha bolalar musiqiy ekanligini nazarda tutadi va yosh bolalarni musiqaga ijodiy va sezgir munosabatda bo‘lishga intensiv ravishda jalb qiladi, bu esa butun umr davomida musiqiylik asoslarini yaratadi. Musiqa butun dunyo bo‘ylab keng ko‘lamli musiqiy madaniyatlarga bo‘linadi va shuning uchun alohida insoniyat madaniyatlari va ularning bu ta’limni o‘rganishni ta’kidlaydigan antropologik nuqtai nazar musiqa psixologiyasini tushunishga ham taalluqlidir. Ushbu tadqiqotlar bizga u yoki bu musiqiy repertuar xususiyatlarining madaniy manbalarini va musiqiy idrokning biologik asoslaridan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan manbalarni farqlashga yordam beradi.

K.Erikson musiqa, sport va ta’lim kabi sohalarda erishilgan yutuqlar darajasidagi individual farqlar qobiliyatlar darajasidan ko‘ra ko‘proq boshqariladigan amaliyot maqsadi hajmidagi individual farqlarni aks ettirishiga e’tibor qaratdi.

Psixometrik intellekt va asosiy musiqiy qobiliyatlar o‘rtasidagi aloqalar yetarlicha yaqin va barqaror hisoblanadi. Sog‘lom fikr nuqtayi nazaridan, intellekt musiqachining kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun ham zarur ekanligi aniq ko‘rinadi [4]. Musiqa chalishning tabiiy vaziyatida u amalga oshirishi kerak bo‘lgan musiqiy operatsiyalarning tavsifi shuni ko‘rsatadiki, u doimo intellekt vakolatiga tegishli bo‘lgan vazifalarni - taqqoslash, umumlashtirish va farqlash, aloqalar va qonuniyatlarni aniqlash kabi vazifalarni hal qilishga majbur bo‘ladi. Barcha professional musiqachilardan murakkab abstrakt tonal tuzilmalarni tushunish, o‘xshash bo‘lmagan musiqiy elementlar o‘rtasidagi munosabatlarni xayolan sintez qilish, musiqiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, shtrixlar tusini farqlash, musiqiy g‘oyani rivojlantirishda umumiy tuzilmaning ichki mantiqini qo‘llab-quvvatlash va amalga oshirish qobiliyati talab etiladi.

Musiqa san’ati musiqiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan sifatlarga yuqori talablar qo‘yadi. Musiqiy qobiliyatlardan tashqari, muhim omillar qatoriga umumiy intellekt bo‘lib hayotdagi ko‘plab tashabbuslarda muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi va shu jumladan, musiqiy kasbni egallash imkoniyatini beradi. Tadqiqotlar ortida olimlarning musiqiy xulosalari shuni ko‘rsatadiki, intellekt asosiy musiqiy qobiliyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, musiqachilarni umumiy populyatsiyadan olingan tanlanma bilan taqqoslash ularning intellektual ustunligini aniqlaydi.

Musiqa psixologiyasi fan sifatida eksperimental, neyropsixologik va pedagogik tadqiqotlar bilan mustahkamlangan ilmiy sohaga aylandi. Musiqa inson miyasining ko‘p qirrali faoliyatini faollashtiradi, emotsional holatni boshqaradi va shaxs rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Magistratura bosqichida bu fan nafaqat nazariy bilim, balki ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa psixologiyasi predmeti musiqiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan psixik qonuniyatlarni o‘rganishdan iborat. Jumladan musiqani idrok etish mexanizmlari bo‘lib inson ohangdagi kichik farqlarni (taxminan 1–5 gers) ajrata oladi hamda bu eshitish tizimining yuqori sezgirligidan dalolat beradi [4].

Musiqiy emotsiyalarga major va minor laddagi musiqalar psixik hissiyotini kuchaytirishini ilmiy tajribalardan ko‘rsak bo‘ladi. Shuningdek musiqa terapiyasi orqali insondagi xotira kuchayishini yaxshilashga bo‘ladi. Ba’zi tadqiqotlarga ko‘ra, Alzheimer kasalligiga chalingan bemorlar ham yoshligida eshitgan qo‘shiqlarini eslay oladi. Bu musiqiy xotiraning uzoq muddatli va barqarorligini ko‘rsatadi [2].

Natijalar va muhokamalar. Musiqani idrok etish sezgi, xotira va tafakkurning o‘zaro ta’sirida amalga oshadi. 1990-yillarda o‘tkazilgan tajribalar shuni ko‘rsatdiki, musiqa tinglash vaqtida dopamin ajralishi ortadi. Dopamin esa “mukofot gormoni” sifatida insonda zavq va motivatsiya hissini kuchaytiradi. Shuningdek, klinik kuzatuvlar musiqaning yurak urish tezligi va qon bosimiga ta’sir qilishini aniqlagan. Sekin va sokin musiqa yurak urishini pasaytirishi, tez va baland musiqa esa aksincha, faollikni oshirishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotlar musiqiy qobiliyatning qisman genetik asosga ega ekanligini ko‘rsatadi. Biroq muhit va ta’lim ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. 6-7 yoshdan boshlab muntazam musiqa bilan shug‘ullangan bolalarda diqqat, eshitish xotirasi va fazoviy tafakkur ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘lishi aniqlangan.

Ijodiy jarayon neyropsixologik nuqtai nazardan qaralganda, improvizatsiya vaqtida miyaning o‘zini nazorat qiluvchi qismlari faolligi pasayib, tasavvur va erkin assotsiatsiyalar bilan bog‘liq hududlar kuchliroq ishlaydi. Bu ijod jarayonining erkin va spontan xarakterini tushuntiradi.

Bugungi kunda musiqa terapiyasi bugungi kunda klinik amaliyotda qo‘llanilmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, musiqa terapiyasi stress va depressiv holatlarni kamaytirishda samarali yordamchi vosita sifatida tavsiya etiladi. Reabilitatsiya markazlarida insultdan keyingi bemorlarda nutq va harakatni tiklash jarayonida ritmik mashqlar qo‘llaniladi. Ta’lim tizimida esa

musiqiy mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va emotsional barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Musiqiy asarning tarkibiy elementlari musiqa nazariyasi va musiqa psixologiyasida markaziy o‘rin egallaydi. Ritm, melodiya va garmoniya nafaqat musiqaning formal tuzilishini belgilovchi komponentlar, balki inson ongida musiqiy mazmunni shakllantiruvchi psixologik mexanizmlar sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan ushbu elementlarning psixologik va nazariy talqinlarini qiyosiy tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Ritm musiqa nazariyasida vaqtning musiqiy tashkil etilishi, urg'ular va davomiyliklarning tizimli ketma-ketligi sifatida ta'riflanadi. U musiqiy asarning ichki harakatini belgilab, strukturaviy yaxlitlikni ta’minlaydi. Musiqa psixologiyasida esa ritm insonning biologik va psixofiziologik jarayonlari bilan bevosita bog‘liq hodisa sifatida qaraladi. Yurak urishi, nafas olish va harakat ritmlari musiqiy ritmni idrok etishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ritmik strukturalar inson ongida vaqtni idrok qilish, diqqatni jamlash va harakat koordinatsiyasini boshqarishga yordam beradi. Demak, ritm musiqa nazariyasida formal birlik bo‘lsa, psixologiyada u organizm va ong faoliyati bilan uzviy bog‘langan kognitiv stimulyator sifatida namoyon bo‘ladi.

Melodiya musiqa nazariyasida tovush balandliklarining mantiqiy va ifodali ketma-ketligi sifatida talqin etiladi. Melodik harakat, lad tizimi va intonatsion bog‘lanishlar musiqiy mazmunni shakllantiruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Musiqa psixologiyasida esa melodiya emotsional mazmun tashuvchisi sifatida o‘rganiladi. Inson ongida melodiya hissiy kechinmalarni uyg‘otuvchi, xotirada saqlanib qoluvchi va shaxsiy tajribalar bilan bog‘lanadigan psixologik obrazni hosil qiladi. Psixologik tadqiqotlar melodik chiziqlarning ko‘tarilishi va pasayishi insonda turli emotsional reaksiyalarni yuzaga keltirishini ko‘rsatadi. Bu holat musiqa nazariyasidagi melodik qonuniyatlar bilan psixologik idrok o‘rtasidagi bevosita aloqani tasdiqlaydi.

Garmoniya musiqa nazariyasida akkordlar tizimi va ularning funksional bog‘lanishlari orqali ifodalanadi. Garmonik tuzilma musiqiy asarning barqarorligi va rivojlanishini ta'minlaydi. Musiqa psixologiyasida esa garmoniya tovushlar uyg'unligining subyektiv idroki sifatida qaraladi. Inson ongida konsonans va dissonans tushunchalari nafaqat akustik, balki emotsional baholash bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Garmonik keskinlik va yechim jarayonlari insonda kutish, hayajon va qoniqish kabi hissiy holatlarni yuzaga keltiradi. Bu esa musiqa nazariyasidagi garmonik funksiya tushunchasining psixologik asosga ega ekanini ko‘rsatadi.

Ritm, melodiya va garmoniyaning ushbu qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, musiqa nazariyasidagi tarkibiy birliklar musiqa psixologiyasida idrok va hissiy tajriba orqali qayta talqin qilinadi. Har bir nazariy element inson ongida psixologik mazmun kasb etib, musiqiy asarning to‘liq anglanishiga xizmat qiladi. Demak, ushbu elementlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar musiqaning struktural va psixologik darajalari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ifodalaydi.

Xulosa. Musiqiy shakl musiqa nazariyasida asarning umumiy tuzilishi, bo'limlararo munosabatlar va rivojlanish mantiqini ifodalovchi muhim tushuncha hisoblanadi. U musiqiy materialning vaqt va makon doirasida tashkil etilish usulini belgilaydi. Musiqa psixologiyasida esa musiqiy shakl inson ongida kechadigan kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq holda, ya’ni musiqiy voqelikni anglash, eslab qolish va ma'nolash jarayoni sifatida talqin etiladi. Shu sababli musiqiy shaklni nazariy va psixologik nuqtayi nazardan qiyosiy tahlil qilish ilmiy jihatdan muhimdir. Inson musiqani idrok etish jarayonida uning bo‘limlarini farqlaydi, takrorlanuvchi elementlarni tanib oladi va rivojlanish yo‘nalishini bashorat qiladi. Bu jarayonlar xotira, diqqat va tafakkur bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, sonata shaklida ekspozitsiya, rivoj va repriza bo‘limlari tinglovchi ongida alohida kognitiv bloklar sifatida shakllanadi. Bu esa musiqa nazariyasidagi formal tuzilma bilan psixologik idrok o‘rtasidagi nazariy o‘xshashlikni ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, musiqiy shakl va strukturaviy darajalar musiqa nazariyasida formal tizim sifatida qaralsa, musiqa psixologiyasida ular inson ongida shakllanadigan kognitiv modellar sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuvlar o'rtasidagi nazariy o‘xshashliklar musiqaning struktural va psixologik mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Umuman olganda, musiqa psixologiyasi va musiqa nazariyasida tarkibiy darajadagi nazariy o‘xshashliklarni ilmiy-qiyosiy tahlil qilish musiqaning inson psixikasiga ta’sirini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi hamda musiqiy bilim va amaliyotlarni birlashtiruvchi nazariy zamin yaratadi.

Adabiyotlar

1. Atyamova L.L. Musiqa psixologiyasini tushunish. – Toshkent: // Science and Education, 2024, № 4, 45-50-b.

2. Romanova S. Xalıq dóretiwshiligin búgingi zamanagóy jaslarǵa tásiri hám tárbiyası. Muzıka korkem óneriniń Pedagogikalıq hám teoriyalıq tiykarları” atamasındaǵı Respublikalıq ilimiy-ameliy konferenciya. – Nókis: Óz.Dav.Konservatoriyası Nókis filialı, 25-aprel, 2025-jıl.

3. Seashore C.E., Lewis D., Saetveit J.G. Seashore меры музыкального таланта. – Нью-Йорк: Психологическая корпорация, 2010.

4. Холиков К.Б. Мозг и музыкальный разум, психологическая подготовка детей и взрослых к восприятию музыки. // Science and Education, 4 (7). – С. 277-283

UDK 37.02:81’27:811.111

LATIFALAR ASOSIDA NUTQIY AKTLAR VA XUShMUOMALALIK ME’YORLARINI O‘QITISh

Rustamov Ilxom Tursunovich – *filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, professor*
ilhom.rustamov.20080223@gmail.com
Toshkent davlat transport universiteti

ОБУЧЕНИЕ РЕЧЕВЫМ АКТАМ И НОРМАМ ВЕЖЛИВОСТИ НА МАТЕРИАЛЕ АНЕКДОТОВ

Рустамов Илхом Турсунович – *доктор философии по филологическим наукам, профессор*
Ташкентский государственный транспортный университет

TEACHING SPEECH ACTS AND POLITENESS NORMS THROUGH JOKES

Rustamov Ilxom Tursunovich – *Doctor of Philosophy in Philological Sciences, Professor*
Tashkent State Transport University

Tayanch so‘zlar: ingliz tili, latifa, nutq formulasi, nutqiy akt, pragmatik kompetensiya, pragmatik xato, rad javobi, uzr so‘rash, xushmuomalalik.

Rezyume. Maqolada ingliz tilini o‘rganuvchilarga nutqiy aktlar va xushmuomalalik me’yorlarini o‘rgatishda o‘zbek va ingliz latifalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi ona tilidagi pragmatik me’yorlarning xorijiy til muloqotiga ko‘chishi bilan bog‘liq ehtimoliy tushunmovchiliklarni o‘quv jarayonida muhokama qilish zaruratidan kelib chiqadi. J.Searle tasnifi, P.Brown va S.Levinsonning xushmuomalalik nazariyasi hamda J.Thomasning pragmatik xatolar tipologiyasi asosida taklif, iltimos, rad javobi, uzr so‘rash, minnatdorchilik, shikoyat va nutq formulalariga oid maqsadli tanlangan 12 latifa tavsifiy tahlil qilindi. Tanlangan matnlarda kulgi ko‘pincha nutqiy aktning bilvosita ifodalanishi yoki xushmuomalalik formulasining vaziyatga mos kelmasligi bilan bog‘liqligi kuzatildi. Tahlil asosida latifalar bilan ishlashning aniqlash, tahlil, qiyoslash va qo‘llash bosqichlaridan iborat modeli hamda nutqiy vaziyatni to‘ldirish topshiriqlari ishlab chiqildi. Taklif etilgan materiallar pragmatik me’yorlarni muhokama qilishga xizmat qilishi mumkin.

Ключевые слова: английский язык, анекдот, вежливость, извинение, косвенный речевой акт, отказ, прагматическая компетенция, прагматическая ошибка, речевая формула, речевой акт.

